

## **Arxitektura Yodgorliklarida Tasviriy Va Amaliy San'atni Qo'Llanilishining Hududiy Xususiyatlari O'Rganishni Takomillashtirishning Pedagogik Talablari**

**Sadoqat Boboqulovna Shodiyeva**  
Buxoro davlat universiteti Tasviriy  
san'at va muhandislik grafikasi  
kafedrasi o'qituvchisi

**Annatasiya:** Ushbu maqolada arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishining hududiy xususiyatlari o'rghanishni takomillashtirishning pedagogik talablari keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kompozitsiya, struktura, konstruksiya, kompanovka, etaplar, fazalar, komponent, reproduktiv, alternativ.

Mustamlaka tartibi o'rnatilgach, O'rta Osiyo me'morchiligidagi jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ibotat inshootlari, ulkan karvonsaroylar, madrasalar, maqbaralar qurilishi to'xtab qoldi. O'rta asrlarda O'rta Osiyo hukmdorlari ruhoniylar mehrini qozonish va ularning qo'llab-quvvatlashiga erishish hamda o'zlaridan xotira qoldirish uchun ulug'vor maqbaralar va jome masjidlar qurishgan bo'lsa, endi bunday ishlarga juda kam mablag' sarflanardi.

Turkiston general-gubernatorligi hududida ham arxitektura o'ziga xos uslubda rivojlandi. Qadimiy shaharlarning rivojlanishi va yangilarining barpo etilishi muayyan me'moriy tartibni qaror toptirishni talab etardi. XIX asr oxiridan har bir shaharda shahar bosh me'mori lavozimi tayinlandi, u me'moriy me'yolarning bajarilishini qattiq kuzatib borishi zarur edi. Biroq bu yerda me'morlik san'atining nozik jihatlari to'g'risida uncha qayg'urilmay, ko'proq muayyan vazifani bajarishi lozim bo'lgan imoraflar – mакtablar, ma'muriy binolar va h.k. qurilardi. Bu paytda shahar qurilishining metall va betonni joriy etishga asoslangan, davr ruhiga mos yangi usullari rivojlandi.

Andijon asrlar davomida Farg'ona vodiysining darvozasi bo'lib keldi. Bu yerdagi yagona asosiy me'moriy obida – 1902-yilgi halokatli zilziladan omon qolgan ulkan jome masjididir. XIX asr oxirida qurilgan bu bino kishini hayratga soladi, uning uzunligi deyarli 123 m ga teng edi.

Toshkentda XIX asr oxiri – XX asr boshida qurilgan binolar orasida knyaz Nikolay Konstantinovich Romanov saroyi, o'g'il va qiz bolalar maktablari, oliv texnika maktabi, hukumat binosi bor.

Toshkentdagi ko'plab binolar: o'qituvchilar seminariyasi (1881) va uning cherkovi, Kirxa (1892), shahar dumasi binolari loyihasi muallifi me'mor Aleksey Leontyevich Benua (1838-1902) edi. U Toshkentga 1874-yilda kelgan. 1896-yilda ochilgan hunarmandchilik – sanoat ko'rgazmasining bir nechta pavilyonlarini, shahar bog'i darvozasini loyihalashtirgan.

An'anaviy yondashuvning asosiy xususiyati – tasviriy san'at predmetini o'qitayotgan o'qituvchi ma'lum axborotni taqdim qilish mobaynida uni tushuntirib beradi, o'quvchi esa bu bilimni xotirada saqlaydi. Bunda "bilim" tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Masalan, kompozitsiyaning asosiy vazifasi bolalarda ijodiy tasavvurni o'stirish, hayotdagi vogelikni ko'rib idrok etish, badiiy did va madaniyatni tarkib toptirish, barcha san'at sohalarida kompozitsiyani egallay bilishi, fandan olgan bilimlarni unumli foydalanishni ta'minlashdan iboratdir. O'quvchining bilim darajasi attestatsiya va nazorat ishlarida shu axborotga doir savolga bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bu bilim yuzaki bo'lishi ham mumkin va u xotirada uzoq saqlanmaydi. O'quvchining o'zlashtirish darajasi, sifati haqida aniq tasavvur hosil qilish qiyin.

# Procedia of Social Sciences and Humanities

Proceedings of the International Conference on Community Education, Economics, Psychology And Social Studies 2021 (ICCEEPS)

Ta'lim jarayonida tizimli yondashuv haqida gapirishdan oldin "tizim" tushunchasining mohiyatini yoritish maqsadga muvofiq. Tizim so'zi –tuzilma, qismlardan tuzilgan, birikkan narsa yoki hodisa ma'nosini anglatadi. "Kibernetik tizim", "axborotlar tizimi", "ijtimoiy munosabatlар tizimi", "harakatlar tizimi", "pedagogik tizim" kabi tushunchalar ham ishlataladi.

"Tizimli yondashuv ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo'nalishi sifatida universal tavsifga ega, pedagogikada keng qo'llaniladi, ta'lim-tarbiyaga ham pedagogik tizim sifatida qarash lozim" deb ta'kidlaydi M. Ochilov.

Tizimli yondashuv tuzilish vazifasiga ko'ra bajariladigan tahlilga yaqin turadi. Tizimli tahlilning ob'ekti yaxlit narsa yoki hodisa (tizim) hisoblanadi, u ob'ektning turli qismlarini, qismlarning o'zaro bog'liqligini, tizimning chegaralarini va tizimning atrof-muhit bilan bog'liqligini, aloqadorligini nazarda tutadi. Masalan, kompozitsiya o'quv mashg'ulotining predmeti maqsadi, vazifalari va mazmuni. Kompozitsiyani o'qitishning uslublari. "Kompozitsiya", "struktura", "konstruksiya", "kompanovka" tushunchalari. Kompozitsiya kursining tasviriy san'at bo'yicha o'quv maxsus fanlari bilan aloqasi. Rassom-pedagogni tarbiyalashda kompozitsiyaning muhim o'rni. Kompozitsiya nazariyasi masalalari va uni "Uyg'onish davri" dagi o'qitish metodlari.

Ko'rib turganimizdek, tizimli yondashuvda qator prinsiplar majmuidan foydalaniladiki, ular tadqiqotchilik va amaliy faoliyatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi. B.Bespalko bunday qoida-prinsiplar qatoriga quyidagilarni kiritadi: mavhumlikdan yaqqollikka qarab borish; analiz bilan sintezning, mantiqiylik bilan tarixiylikning birligi; ob'ektda bog'lanishlar va o'zaro ta'sirlarning turlichaligi; ob'ektning tuzlishi – vazifalari va kelib chiqishi haqidagi tasavurlarning birligi va boshqalar.

Tasviriy san'at darslariga texnologik yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi:

- o'qish-o'qitish jarayonini o'zaro o'zviy bog'lik etaplar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;
- ta'limdan kutilgan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni. Bunda badiiy ijod komponentlari bilim, dunyoqarash, badiiy uslub, badiiy nafosat, did, mahorat va hokazolar albatta inobatga olinadi.

Bunday yondashuv asosan reproduktiv ta'limga xos bo'lib, reproduktiv ta'lim tipik vaziyatlarda biror ish-harakatni oldin bilib olingan qoidalar asosida bajarishdir. Reproduktiv daraja uchun pedagogik texnologiya usulida ta'lim takror ishlab chiqiladigan konveyrli jarayon sifatida tashkil etiladi, undan kutiladigan natija ham aniq belgilab qo'yiladi. O'quv materiali aniq ifodalangan o'quv maqsadiga mos qayta tuzib, ishlab chiqiladi, ayrim bo'lak (qism, modul)larga ajratiladi, o'quv materialini o'rgatishning alternativ yo'llari nazarda tutiladi, har bir bo'lakni o'rganish test yoki boshqa yo'llar bilan nazorat qilinib, xato-kamchiliklar tuzatilib boriladi. . Bu borada ta'limning, arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishini takomillashtirish bugungi kun badiiy pedagogikasining dolzarb muammolaridan biridir. "Bugungi kunda barchamiz uchun eng muhim vazifaga aylanayotgan bir masala borki, biz amalga oshirayotgan barcha islohotlarning natijasi aynan shu masalani qanday hal etishimizga bog'liq. U ham bo'lsa, hayotimiz mazmuni, ertangi kunimiz egasi bo'lgan yosh avlod, farzandlarimiz tarbiyasidir. Bu masalaning dolzarbligi va muhimligini hisobga olib, bu mavzuga yana to'xtalishni o'rni deb bilaman".<sup>1</sup>

Arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishini takomillashtirishda xalqaro miqyosdag'i e'tirof etilayotgan zamonaviy ta'limiy tendensiylar mahalliy an'analar, tajribalarni sintetik tarzda qo'llanishi didaktik qonuniyatlar nuqtai nazaridan ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Shu ma'noda arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik asoslari, jarayonning mazmuni va metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, didaktik imkoniyatlarini aniqlashga oid maxsus tadqiqot o'tkazish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

## Literature

1. МБ Азимова, ШИ Ибадуллаева. XIX АСР ОХИРИ - XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АҳОЛИ ТУРАР ЖОЙЛАРИИНТЕРЬЕР БЕЗАГИ (ФАЙЗУЛЛА ХўЖАЕВ УЙ - МУЗЕЙИ МИСОЛИДА).
2. Avliyakulova N. M. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA DIDAKTIK PRINSIPLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №.

# Procedia of Social Sciences and Humanities

Proceedings of the International Conference on Community Education, Economics, Psychology And Social Studies 2021 (ICCEEPS)

- NUU Conference 1. – С. 179-181.
3. Сулаймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (3 (59)), 53-56.
  4. Mamatov, Dilshod. "PROJECTS OF MAKING CLAY AND PLASTIC TOYS IN PRE-SCHOOL EDUCATION." *Theoretical & Applied Science* 9 (2019): 281-285.
  5. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2021). Graphic Information Processing Technology and its Importance. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 10, 1-4.
  6. Мамурова Д. И., Мамурова Ф. И. Соотношения навыков черчения с опытом психологического исследования //Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири. – 2015. – №. 1.
  7. Islomovna M. D., Ruziboevich S. A. SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS IN DRAWING ON THE BASIS OF COMPUTER ANIMATION MODELS //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 4.
  8. N.J. Yadgarov 2021. METHODS USING THE 3DS MAX PACKAGE IN TEACHING PROJECTION DRAWING IN SCHOOL. Euro-Asia Conferences. 1, 1 (Jan. 2021), 124–127.
  9. Muzaferovna, A. N., Umidullayevna, S. S., & Ilhamovna, I. (2020). Harmonization of types of fabric art processing to students. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 176-184.
  10. Ядгаров Н. Д., Хакимова Г. А. Самобытное творчество народных мастеров Узбекистана //Молодой ученый. – 2018. – №. 15. – С. 272-275.
  11. Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., Тухсанова, В. Р., & Сулаймонова, М. Б. (2021). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОВЕДЕНИЯ БЕСЕД ОБ ИСКУССТВЕ. *European science*, (2 (58)), 38-40.
  12. Rafieva N. A., Abrorjon R. MATERIALS AND TECHNOLOGY OF MEDIEVAL MINIATURE PAINTING (SUMMARY) //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 327-330.
  13. Abdurazzokovna R. N., Murotdilloevna A. M. SOME ASPECTS OF THE ORGANIZATION OF THE INDEPENDENT WORK OF THE FINE ARTS STUDENTS //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 83-85.
  14. Ширинов, А. Л., Батиров, Д. С., & Шомуродов, О. Н. (2021). ВАЖНОСТЬ ЦВЕТОВЕДЕНИЯ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ. *Наука и образование сегодня*, (5 (64)), 83-85.
  15. Аминов, Акмал Шавкатович, et al. "ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ." *European science* 2 (58) (2021): 77-79.
  16. Собирова, Ш. У., Ядгаров, Н. Д., Мамурова, Д. И., & Шукров, А. Р. (2021). ОСНОВЫ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (2 (58)), 62-65.
  17. Азимова М. Б., Азимов Б. Б., Тухсанова В. Р. ИСКУССТВО РОСПИСИ ТКАНЕЙ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 41-43.
  18. Shirinov, A. L. (2021). USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE METHODS IN FINE ART. *World Bulletin of Social Sciences*, 4(11), 59-61.
  19. Mamurova, F. I., & Mustafaev, E. (2021, October). Aksonometrik Proyeksiyalarning Asosiy Teoremasi. Dimmetrik Aksonometriya Qurish. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 100-103).
  20. Mamurova, F. I., & ugli Mustafayev, E. I. (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. *Conferencious Online*, 16-18.
  21. Mamurova, F. I., & oglu Akmalov, J. O. (2021). ORGANIZATION OF GEODESIC WORK. STATE GEODESIC NETWORKS. *Conferencious Online*, 21-23.
  22. Мусинова, Азиза Садыковна. "Возрождение бухарской чеканки по меди." *Міжнародний науковий журнал Інтернаука* 2 (1) (2017): 37-39.

# Procedia of Social Sciences and Humanities

Proceedings of the International Conference on Community Education, Economics, Psychology And Social Studies 2021 (ICCEEPS)

23. Kadirov, Orif Mahmudovich, Nozima Arifovna Kadirova, and Mexriniso Kahhorova. "METHODS OF USING FOLK TALES AND FOLKLORE ABOUT CRAFTS IN THE ORIENTATION OF YOUNG PEOPLE TO THE PROFESSION." *E-Conference Globe*. 2021.
24. Botirov, J. S., Bakaev, S. S., Avliyakulov, M. M., Shirinov, A. L., & Abdullaev, S. S. (2021). The same goes for art classes in private schools specific properties. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol*, 27(2).
25. Samadovich, A. S., Nayimovich, A. S., & Nosirovna, S. M. (2021). Technology Of Teaching Fine Arts And Science Classroom. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 25(2), 109-111.
26. Собиров, Толиб Рузиевич, et al. "ОБ ОБЩЕСТВЕННОМ ПОЛОЖЕНИИ ЗОДЧИХ И АРХИТЕКТОРОВ СРЕДНЕГО И БЛИЖНЕГО ВОСТОКА В IX-XV ВЕКАХ." *European science* 2 (58) (2021): 59-62.
27. Bobokulovna, S. S. (2021). FEATURES OF FINE AND APPLIED MOTIVES OF ART IN THE ARCHITECTURE OF THE NAVOI REGION. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6, 5-5.
28. Sadikovna, Musinova Aziza, et al. "THE PLACE OF ART IN PERSONAL DEVELOPMENT." *European science* 2 (58) (2021): 98-100.
29. Muzaferovna, A. N., & Jurayevich, J. Q. (2020). The role of islam in folk decorative art of Bukhara. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(5), 347-350.